

## **GO‘DAKLIK DAVRI PSIXALOGIYASI.**

**Andijon davlat Pedagogika instituti  
assistent o‘qituvchisi SH.Rahmonova  
Pedagogika 102 guruh talabasi Pirmatova M**

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada go‘daklik davrida bolaning himoyasiz kam harakat, atrofidagi hodisalarga juda kam reaksiyasi bo‘lgan boladan juda tez rivojlanadigan faol xarakatchan bolaga aylanish davri hisoblanadi.

**Kalitso‘zi:** Pediatriya, Patopsixologiya, psixikjarayon, evalutsiya, psixiktaraqqiyot, badan analizatori.

Ma’lumki, bola shaxsi va uning psigologik hususiyatlari qanday dirtasodifiy omillarning tartibsiz ta’sir etishi natijasida emas balki muayyan konkret omillarning qonuniy ta’sir etishi.

Go‘daklik yoshida bolalarni xarakter ko‘nikmalari qo‘l oyoqlarining murakkab koordinatlashgan xarakatlari tez rivojlanadi, bu xarakterlar keginchalik bolalarni bilish va aqliy qobiliyatlarini yuzaga kelishida judayam sezilarli rol o‘ynaydi. Tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlaridan habardor bo‘lish bolalar psixologiyasiga bolalar psixik taraqqiyotini o‘rganishda vat tabiiy zot bo‘lib tugilgan bolaning shahs bo‘lib yetishishida to‘g‘ri yo‘l topishdir. Ollohning biz uchun atalgan hadyasi farzand hisoblanadi, yangi tugilgan farzandiz chaqaloqlik davrida taxminan ikki oygacha faqat zarur ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanadi, yigirma soatga yaqini uyqubilan o‘tadi. Bola uzoq uxlashi tufayli energiyasining asosiy qismi tez o‘sadi jismoniy jihatdan tez rivojlanadi. Bola ikki oylik bo‘lganida go‘daklik davri boshlanadi, bu davrlar oraligi (2oydan-1 yoshgacha). Bola psixik jihatdan taraqqiy etishi muammoni o‘rganish falsafa bilish nazariyasi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Bolaning psixologiyasining mustaqil fan sifatida ajralib chiqishiga quyidagi xolatlar sabab bo‘lgan:

a) hamma fanlarga kirib kelayotgan evalusion goyasining psixikaning rivojlanish jarayonida o‘rganish zarurligini taqazo etishi

b) umumpsixologik qonuniyatlar bolaning hatti- harakati , psixik xususiyatlarini va bolaning rivojlanishiga biror bir faoliyatning ta’sirini aniqlash uchun yetarli emasligini etirof etish

c) bolalar psixologiyasining nazariy ahamiyatga ega ekanligi

d) tibbiyot fani va uning tarmoqlarining pediatriya, bolalar patopsixologiyasi fanlari bolaning jismoniy rivojlanishigina emas normal bola psixikasining hususiyatlarini bilish

Ilk go‘daklik davrdan boshlab bolada turli xil his tuygular yuzaga kela boshlaydi. Organizmning hayoti va taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan tabiiy ehtiyojlar tufayli bolada dastlabgi hislar paydo bo‘ladi. Masalan to‘qmi? Ochmi? Issiq yoki sovuqqotish rohatlanish yoki norozilik hislari paydo bo‘ladi. Bular bolada tugma hislar bo‘lib bu hislar o‘zini o‘zi saqlash shartsiz refleklari ko‘rinishlarining hissiy formasidir. Bola 3- 4 haftalik bo‘lganidayoq unda xarakter hotirasini dastlabki ko‘rinishlari paydo bo‘lab oshlaydi Masalan: agar bolani emizgan vaqtidagidek qilib qo‘limizga olsak bola talpinib emishga harakat qiladi. Bola 3-4oylik bo‘lganda esa yaqqol obrazli hotira paydo bo‘la boshlaydi, bola o‘z onasini taniydi, onasini ko‘rganda kulib unga qo‘l uzatadi. Bola 2 oyligida birinchi marta ko‘z yoshi paydo bo‘ladi, ingrash o‘rniga ko‘z yosh chiqarib yiglaydi. Bolaning yigisi sabrsizligini norozilikni ifodalaydi ikki oylik bola jilmayib kulishni ham o‘rganadi. Bola uch oygacha

**“Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar” mavzusida Respublika ilmiy anjuman to’plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun.**

to’lganida uning hissiy tuygulari murakkablashadi jonlanish kompleksi yuzaga keladi, bola katta kishini ko’rinishi bilan darrov jilmayadi unga qo’lini uzatib talpinadi oyoqlarini qimirlatib turli hil tovushlar chiqaradi bu hol bolada yaqin kishilariga nisbatan mexr hissining yuzaga kelayotganidan dalolat beradi .

Ilk yoshi davrida murakkab psixik jarayonlardan tafakkur elementlari ham yuzaga keladi bola olti oygacha nutqsiz taffakkur elementlari bo’ladi, ayni bir hil harakatlarni ko’p martalab takrorlash bolani bilish qobilyatini o’stiradi, go’daklik davrida psihikasi nihoyatda tez rivojlanadi, bola asta sekin kamroq uxlaydi, atrofdagi narsalarga ko’proq qiziqadigan bo’ladi. Bola tovush qilgan tomonga qarab boshini ko’taradi, ammo bu harakatlarning ko’pchiligi betartib, ixtiyorsiz xarakatlardir tabora ko’proq ta’surot oladigan bo’lib qoladi.

Kattalarning aytgan so’zlariga tushunadi nomi aytilgan narsalarni ko’zi bilan qidirib topadi va uni qo’li bilan ko’rsatadi masalan: ko’zing qani, og’zingqani vax.k.

Bola bir yoshga to’lganida unda eslab qolishning dastlabki belgilari paydo bo’ladi, bola oti aytilgan narsani ko’zi bilan qidiradi agar topolmasa bezovta bo’la boshlaydi achchiqlanadi. Bu hol bolada idrok qilingan narsalar to’grisida tasavvurlar paydo boladi bola o’rnidan turib oladiyu, lekin qaltirab turadi chunki uning oyoqlari hali kuchsiz o’z gavdasini ko’tara olmaydi. Qadam tashlamoqchi bo’ladiyu lekin yiqilishdan qo’rqadi. Bolada “motivlar kurashi “ bir oz davom etadi so’ngra ikkinchi qadamni qo’yadi. Xulosa: Ilk yoshdagi bolaning psixik jarayonlari uning faol faoliyati, turli tuman harakatlari, atrofidagi narsalarni ko’proq bilish jarayonida rivojlanib boradi. Psixik jarayonlarni yanada taraqqiy etishi, maktabgacha tarbiya muossasalarida ishlovchi pedagoglarning, tarbiyachilarning va ota-onalarning eng muhum vazifalarida, biridir. Nihoyat qiyinchiliklarni yengib o’tadi, o’zi maqsadga erishadi bolaning irodasi mana shunday o’sadi.

Shunday qilib go’daklik davri bolaning psixik jarayonlari uning faol faoliyatidir  
FOYDANALINGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yosh davrlari pedagogic psixalogiyasi M,G,Davletshin, M,Mavlonov.
- 2.I Karimov “Barkam olavlod orzusi:1998y
- 3.<https://arxiv.uz> psixalogiya.